

MATNGA ASOSLANGAN TUSHUNISH MASHQLARI ORQALI O'QUVCHILARNING NUTQINI KUCHAYTIRISH

Madaminova Muzifa Shukurullo qizi

Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada matnga asoslangan tushunish mashqlarining o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishdagi lingvodidaktik va psixopedagogik imkoniyatlari kompleks yondashuv asosida tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida matn markaziy didaktik birlik sifatida talqin qilinib, uni tushunish, tahlil qilish va qayta ifodalashga yo'naltirilgan mashqlar orqali o'quvchilarning leksik faolligi, grammatik to'g'riligi, nutq ravonligi hamda kommunikativ faolligini kuchaytirish mexanizmlari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: lingvodidaktika, kommunikativlik, kompetensiya, interpretatsiya, kognitivlik, integrativlik, diskursivlik, metodologiya.

ENHANCING STUDENTS' SPEECH THROUGH TEXT-BASED COMPREHENSION ACTIVITIES

Abstract: This scientific article examines the linguodidactic and psychopedagogical potential of text-based comprehension activities in developing students' oral speech through a comprehensive approach. In the course of the research, the text is interpreted as a central didactic unit, and through activities aimed at understanding, analyzing, and re-expressing its content, the mechanisms for enhancing students' lexical activity, grammatical accuracy, speech fluency, and communicative engagement are scientifically substantiated.

Keywords: linguodidactics, communicativeness, competence, interpretation, cognition, integration, discursivity, methodology.

УСИЛЕНИЕ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ УПРАЖНЕНИЙ НА ОСНОВЕ ПОНИМАНИЯ ТЕКСТА

Аннотация: В данной научной статье на основе комплексного подхода исследуются лингводидактические и психопедагогические возможности упражнений, основанных на понимании текста, в развитии устной речи учащихся. В ходе исследования текст рассматривается как центральная дидактическая единица, а посредством упражнений, направленных на его понимание, анализ и повторное воспроизведение, научно обосновываются механизмы повышения лексической активности, грамматической правильности, речевой беглости и коммуникативной активности учащихся.

Ключевые слова: лингводидактика, коммуникативность, компетентность, интерпретация, когнитивность, интегративность, дискурсивность, методология.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim paradigmasida til o'qitish jarayoni o'quvchining faqat grammatik bilimlarini shakllantirish bilan cheklanmay, balki uning kommunikativ kompetensiyasini, xususan, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Bu jarayonda matnga asoslangan tushunish mashqlari (text-based comprehension activities) o'quvchining kognitiv faoliyatini faollashtiruvchi, analitik va reflektiv tafakkurini rivojlantiruvchi samarali didaktik vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Matn bilan ishlash orqali o'quvchi mazmunni idrok etish, axborotni qayta ishlash, asosiy va ikkilamchi g'oyalarni ajratish hamda ularni nutqda mantiqan ifodalash ko'nikmalarini egallaydi.

O'quvchilarning nutqini rivojlantirishda matnga asoslangan tushunish mashqlaridan tizimli foydalanish masalasi O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlari bilan bevosita uyg'unlashadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil va muloqot madaniyatini shakllantirish asosiy strategik vazifalardan biri sifatida belgilangan [1]. Mazkur strategiyada ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish alohida ta'kidlanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida til o'qitishda kommunikativ yondashuvga asoslangan metodlarni joriy etish, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol mashqlar ulushini oshirish zarurligi qayd etilgan [2]. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar til ta'limida matnni tushunishga asoslangan mashqlarni ilmiy-metodik jihatdan asoslab, ularni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratadi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda matnga asoslangan tushunish mashqlari o'quvchining nutq faoliyatini rivojlantiruvchi integrativ mexanizm sifatida talqin qilinadi. Bunday mashqlar o'qish, tinglab tushunish, fikrlash va gapirish ko'nikmalarini o'zaro uzviy bog'liq holda shakllantiradi. Matn mazmunini chuqur

anglash jarayonida o'quvchi leksik birliklarni faol nutqda qo'llashga, grammatik konstruksiyalarni kontekst asosida ongli ravishda tanlashga hamda o'z fikrini izchil bayon etishga o'rganadi. Natijada nutq faolligi oshib, o'quvchi passiv bilim egasidan faol muloqot subyektiga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan, matnga asoslangan tushunish mashqlari orqali o'quvchilarning nutqini kuchaytirish masalasi nafaqat metodik, balki lingvodidaktik va psixopedagogik jihatdan dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Matnga asoslangan tushunish mashqlari orqali o'quvchilarning nutqini rivojlantirish masalasi zamonaviy lingvodidaktika va metodika fanlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu yo'nalish, avvalo, tilni kommunikativ maqsadlarda o'rgatish, nutq faoliyatining barcha turlarini (o'qish, tinglash, gapirish va yozish) integrativ tarzda rivojlantirish g'oyasiga tayanadi. O'zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda matn markaziy didaktik birlik sifatida talqin qilinib, uning nutqiy kompetensiyani shakllantirishdagi o'rni ilmiy asoslab berilgan.

Xususan, N. Mahmudov va A. Nurmonovlarning "O'zbek tilining nazariy grammatikasi" hamda tilshunoslikka oid ilmiy ishlari matn va nutq munosabatini ochib berishda muhim manba hisoblanadi. Mualliflar matnni til birliklarining eng yuqori darajadagi kommunikativ shakli sifatida baholab, uni tushunish jarayoni o'quvchining tafakkuri va nutqiy faoliyati bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydilar. Ularning qarashlariga ko'ra, matnni anglash jarayoni semantik tahlil, mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash va mazmunni qayta ifodalash orqali nutqning faollashuviga olib keladi [3].

B. Yo'ldoshevning matn lingvistikasi va nutq madaniyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarida matn bilan ishlash o'quvchining nutqiy tafakkurini rivojlantiruvchi asosiy vosita sifatida ko'rsatiladi. Olim matn asosida beriladigan savol-javoblar, qayta hikoyalash, annotatsiya va interpretatsiya mashqlari o'quvchining faol nutqini shakllantirishda samarali ekanini ilmiy dalillar bilan asoslaydi [4]. Ushbu yondashuv matnga asoslangan tushunish mashqlarining metodik ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Til o'qitish metodikasi sohasida J. Jalolovning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Uning chet tillarini o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlarida matn asosida nutqni rivojlantirish kommunikativ yondashuvning markaziy komponenti sifatida talqin etiladi. Olim matnni tushunishga yo'naltirilgan mashqlar orqali o'quvchilarning lug'aviy zahirasi faollashishi, grammatik strukturalarni kontekstda ongli qo'llash va mustaqil fikr bildirish ko'nikmalari shakllanishini ta'kidlaydi [5]. Mazkur ilmiy qarashlar ona tili va chet tillarini o'qitishda birdek metodik ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, R. Xolbekova va Sh. Safarovlarning nutq faoliyati, pragmatlingvistika va matnni idrok etish masalalariga oid ilmiy tadqiqotlarida matnni tushunish jarayoni o'quvchining nutqiy niyati, kommunikativ vaziyat va diskurs bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Bu yondashuv matnga asoslangan mashqlarning faqat mazmunni anglash emas, balki nutqiy vazifani bajarishga yo'naltirilganligini ko'rsatadi [6].

Mazkur ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, matnga asoslangan tushunish mashqlari o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda nazariy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan samarali metodik vosita hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda aynan shu ilmiy qarashlarga tayangan holda metodik yondashuvlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotimiz jarayonida quyidagi metodlardan foydalandik:

Ilmiy-adabiyotlarni tahlil qilish metodi – matnga asoslangan tushunish mashqlari, nutq faoliyati va kommunikativ kompetensiya masalalariga oid o'zbek olimlarining ilmiy asarlari tizimli ravishda o'rganildi va umumlashtirildi.

Lingvodidaktik tahlil metodi – o'quv jarayonida qo'llanilayotgan matnli mashqlar mazmuni, tuzilishi va nutqni rivojlantirishdagi funksiyasi tahlil qilindi.

Pedagogik kuzatuv metodi – matnga asoslangan tushunish mashqlaridan foydalanilgan dars jarayonlarida o'quvchilarning nutqiy faolligi, fikrni ifodalash aniqligi va mantiqiyliqi kuzatildi.

Taqqoslash (komparativ) metodi – an'anaviy grammatik yondashuv asosidagi mashqlar bilan matnga asoslangan tushunish mashqlarining nutqni rivojlantirishdagi samaradorligi qiyosiy tahlil qilindi.

Umumlashtirish va xulosalash metodi – olingan nazariy va amaliy natijalar asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot doirasida matnga asoslangan tushunish mashqlarining o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishdagi samaradorligi tajribaviy yondashuv asosida tahlil qilindi. Tajriba jarayonida 14–16 yosh oralig'idagi, ingliz tili bilim darajasi pre-intermediate–intermediate bo'lgan 20 nafar o'quvchi bilan 4 hafta davomida tizimli mashg'ulotlar olib borildi. Baholash jarayonida o'quvchilarning tajribadan oldingi va keyingi natijalari qiyosiy tahlil qilinib, nutqiy rivojlanish dinamikasi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, matnga asoslangan tushunish mashqlarining muntazam va maqsadli qo'llanilishi o'quvchilarning leksik, grammatik va kommunikativ kompetensiyalarida sezilarli ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Xususan, o'quvchilarning yangi so'zlarni kontekst asosida faol nutqda qo'llash ko'nikmasi 32–45 foiz oralig'ida oshdi. Bu holat matn ustida ishlash jarayonida so'zlarning takroriy uchrashi, semantik tahlil va kontekstual izohlash mashqlarining samaradorligini tasdiqlaydi.

Gap tuzish va nutqiy bog'lanishlik ko'nikmalarini tahlil qilish natijalariga ko'ra, tajriba yakunida o'quvchilarning grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzish darajasi o'rtacha 27 foizga, mantiqiy izchillik ko'rsatkichi esa 35 foizga oshganligi aniqlandi. O'quvchilar matn asosida fikr bildirish jarayonida asosiy va ikkilamchi g'oyalarni ajratish, sabab-oqibat munosabatlarini ifodalash hamda fikrni izchil davom ettirishda yuqori natijalarga erishdi.

Og'zaki nutq ravonligi bo'yicha o'tkazilgan baholashlar shuni ko'rsatdiki, mini-prezentatsiyalar, savol-javob va qayta hikoyalash mashqlari o'quvchilarning nutqidagi pauzalar sonini kamaytirib, fikrni uzluksiz bayon etish ko'nikmasini rivojlantirdi. Ravonlik bo'yicha umumiy o'sish 30–35 foizni tashkil etdi. Bu natija matnli mashqlar orqali o'quvchilarning nutqiy ishonchi va muloqotga kirishish faolligi oshganini ko'rsatadi.

Shuningdek, tinglab tushunish va matn mazmunini qayta bayon qilish malakasida ham sezilarli ijobiy siljishlar kuzatildi. Eksperimental mashg'ulotlar

natijasida o'quvchilar asosiy mazmunni qisqa va aniq ifodalash, muhim dalillarni ajratib olish va ularni shaxsiy fikr bilan bog'lashda 40 foizga yuqori natijalarga erishdi. Bu holat matnni tushunish asosida olib borilgan mashqlar nutqni rivojlantirishda muhim didaktik omil ekanini tasdiqlaydi.

Kommunikativ faollikni baholash jarayonida juftlik va guruhli ishlarda o'quvchilarning ishtiroki sezilarli darajada oshgani qayd etildi. O'quvchilar o'zaro muloqotga kirishish, savollar berish va fikr bildirishda faolroq bo'la boshladi. Bu esa matnga asoslangan tushunish mashqlarining ijtimoiy-psixologik muhitni faollashtiruvchi xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Quyida matnga asoslangan tushunish mashqlari asosida o'quvchilarning nutqiy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar (tajribadan oldin va keyin) umumlashtirilgan statistik ko'rsatkichlari keltirildi.

No	Nutqiy ko'rsatkichlar	Dastlabki holat (%)	Yakuniy holat (%)	O'sish dinamikasi (%)
1	Faol lug'at birliklaridan foydalanish	48	78	+30
2	Yangi so'zlarni kontekstda qo'llash	42	84	+42
3	Grammatik to'g'ri gap tuzish	55	82	+27
4	Nutqning mantiqiy izchilligi	50	85	+35
5	Og'zaki nutq ravonligi	46	79	+33
6	Matn mazmunini qayta bayon qilish	44	84	+40
7	Kommunikativ faollik (juft/guruhli ishlar)	52	83	+31
8	Nutqiy motivatsiya va ishonch darajasi	58	84	+26

Muhokama natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, mazkur metodika o'quvchilarni passiv bilim oluvchidan faol muloqot ishtirokchisiga aylantiradi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim cheklovlar ham aniqlandi: mashg'ulotlarning samaradorligi matn tanlash sifati, o'qituvchining metodik tayyorgarligi va darsning kommunikativ muhitini to'g'ri tashkil etish bilan chambarchas bog'liq.

Umuman olganda, olingan natijalar matnga asoslangan tushunish mashqlarini o'quvchilarning nutqini kuchaytirishda ilmiy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan samarali metodik yondashuv sifatida baholash imkonini beradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

“Matnga asoslangan tushunish mashqlari orqali o'quvchilarning nutqini kuchaytirish” mavzusida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, tajribaviy mashg'ulotlar hamda ularning natijalarini tizimli tahlil qilish asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, matnga asoslangan tushunish mashqlari o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda samarali lingvodidaktik mexanizm hisoblanadi. Ushbu mashqlar o'qish, tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini integrativ tarzda faollashtirib, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi. Matn mazmunini anglash asosida olib borilgan faoliyatlar nutqiy tafakkurning rivojlanishiga va fikrni ongli ifodalashga zamin yaratadi.

Tajriba jarayonida aniqlanishicha, matn bilan tizimli ishlash o'quvchilarning leksik zaxirasini faollashtirish, grammatik strukturalarni kontekstda to'g'ri qo'llash hamda nutqning mantiqiy izchilligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yangi so'z va iboralarni kontekst asosida mustaqil qo'llash, asosiy va ikkilamchi g'oyalarni ajratish hamda ularni og'zaki qayta bayon qilish ko'nikmalarining sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

O'tkazilgan eksperimental mashg'ulotlar matnga asoslangan tushunish mashqlarining o'quvchilarning nutq ravanligi va kommunikativ faolligini oshirishdagi ijobiy ta'sirini tasdiqladi. Mini-prezentatsiyalar, savol-javoblar, qayta hikoyalash va muhokamaga yo'naltirilgan mashqlar orqali o'quvchilarda nutqiy ishonch shakllanib, muloqotga kirishish motivatsiyasi kuchaydi. Bu holat o'quvchining passiv tinglovchidan faol suhbat ishtirokchisiga aylanishini ta'minladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, matnga asoslangan tushunish mashqlarining samaradorligi bevosita metodik dizayn, matn tanlash sifati va o'qituvchining professional kompetensiyasi bilan bog'liq. Mazkur yondashuv ilmiy asosda rejalashtirilgan taqdirda, o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini tizimli monitoring qilish, individual o'sish dinamikasini aniqlash va ta'lim jarayonini optimallashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari va chiqarilgan xulosalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, umumiy va chet tillarini o'qitish jarayonida matnga asoslangan tushunish mashqlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tizimli joriy etish, mashqlarni o'quvchilarning yosh, til darajasi va kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, o'qituvchilarning lingvodidaktik va metodik kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida matn bilan ishlashga yo'naltirilgan maxsus metodik qo'llanmalar, treninglar va malaka oshirish kurslarini ishlab chiqish hamda ularni ta'lim amaliyotiga joriy etish zarur.

Uchinchidan, ta'lim jarayonida matnga asoslangan tushunish mashqlarining samaradorligini oshirish uchun interaktiv usullar (juftlik va guruhli ishlar, muhokama, qayta bayon qilish, mini-prezentatsiyalar) va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni integratsiyalashtirish holda qo'llash, shuningdek, o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini muntazam monitoring qilish mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli Qarori. "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2010.
4. Yo'ldoshev B. Matn va uning lingvistik tahlili. – Toshkent: O'qituvchi, 2014.
5. Jalolov J.J. Chet tillarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
6. Safarov Sh., Xolbekova R. Nutq faoliyati va kommunikativ yondashuv. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.